“TASDIQLAYMAN”
Jizzax politexnika instituti
rektori A.Usmankulov
_____ 2025-yil

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTINING 2025–2030 YILLARGA MO‘LJALLANGAN BARQAROR XARIDLAR SIYOSATI

SUSTAINABLE PROCUREMENT POLICY (2025–2030)

Jizzakh polytechnic institute
2025-2030

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS

1. Kirish (Introduction) **4**

2. Siyosatning qo‘llanish sohasi (Scope of the Policy) **4-5**

3. Asosiy tamoyillar (Key Principles) **5-6**

4. Xarid bosqichlarida barqarorlik mezonlari (Sustainability Criteria in the Procurement Process).....**6-8**

5. Javobgarlik va boshqaruv (Governance and Responsibilities)…….....**8-9**

6. Monitoring, hisobot va rivojlanish (Monitoring, Reporting and Improvement).....**9-10**

7. Qo‘shimchalar va ilovalar (Appendices) **10-12**

8. Yakuniy so‘z (Closing Statement).....**12-13**

Jizzax politexnika instituti barqaror rivojlanishni o‘zining strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan. Ushbu “Barqaror xarid siyosati” institutda amalga oshiriladigan barcha xarid faoliyatlarini ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy mas’uliyat tamoyillari asosida amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Xarid faoliyati institutning umumiy karbon iziga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun bu siyosat xarid jarayonlarida quyidagilarni hisobga olishni nazarda tutadi:

- Atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish (kam ifloslantiruvchi yoki qayta ishlangan mahsulotlar tanlash)
- Hayotiy sikl qiymatini hisobga olish (faqat boshlang‘ich narx emas, balki xizmat muddati, ta’mirlash, utilizatsiya xarajatlari bilan)
- Ijtimoiy va axloqiy jihatdan mas’ul yetkazib beruvchilarni rag‘batlantirish
- Mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash

Ushbu siyosat 2025–2030 yillarga mo‘ljallangan institutning barqaror rivojlanish strategiyasining tarkibiy qismi bo‘lib, UI GreenMetric, THE Impact va QS Sustainability reytinglaridagi natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi. Xarid siyosati doirasida har bir katta xaridda “yashil alternativ” ko‘rib chiqiladi, barqarorlik sertifikatlari inobatga olinadi va xodimlar muntazam ravishda malaka oshirib boriladi.

Barqaror xarid orqali institutimiz ekologik mas’uliyatli, iqtisodiy samarali va ijtimoiy jihatdan adolatli tanlovlar orqali yashil kelajak sari harakat qiladi.

Jizzakh Polytechnic Institute recognizes sustainability as one of its core strategic priorities. This “Sustainable Procurement Policy” aims to ensure that all purchasing activities across the institution are carried out in accordance with environmental, social, and economic responsibility principles.

Procurement significantly contributes to the institution’s overall carbon footprint. Therefore, this policy promotes purchasing decisions that prioritize:

- Reduced environmental impact (e.g., low-emission, recycled, or recyclable products)
- Whole-life cost evaluation (considering not just purchase price, but usage, maintenance, and disposal costs)
- Socially and ethically responsible suppliers
- Support for the local economy and fair trade

This policy forms a key part of the university’s 2025–2030 Sustainability and Climate Action Strategy and will enhance institutional performance in global rankings such as UI GreenMetric, THE Impact, and QS Sustainability. Under this policy, every major procurement must consider at least one sustainable alternative, incorporate green certifications, and include ongoing staff training.

Through sustainable procurement, the institute seeks to move toward a greener future by making choices that are environmentally responsible, economically efficient, and socially just.

1. KIRISH

Barqaror rivojlanish bo‘yicha global chaqiriqlarga javoban Jizzax politexnika instituti o‘z faoliyatining barcha jihatlarida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga intiladi. Xaridlar (sotib olish) institut faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, binolarni qurishdan tortib, laboratoriya uskunalari, ofis anjomlari, oziq-ovqat, xizmat ko‘rsatish va boshqa ehtiyojlargacha bo‘lgan barcha harajatlar orqali kampusning ekologik iziga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Jahon miqyosida olib borilgan tahlillarga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida umumiy karbon chiqindilarining 60–80% gacha qismi bilvosita xaridlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, institutda har bir xarid qarori barqarorlik mezonlarini hisobga olgan holda qabul qilinishi zarur.

Ushbu siyosatning maqsadi – Jizzax politexnika institutining xarid siyosati va amaliyotini barqarorlik tamoyillari asosida takomillashtirish, mahsulot va xizmatlarni tanlashda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlarni hisobga olishni yo‘lga qo‘yishdir.

Siyosat institutning “2025–2030 yillarga mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish va iqlim harakati strategiyasi”ning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, UI GreenMetric, THE Impact, QS Sustainability reytinglarida faol ishtirok etish va global maqsadlarga (BMT SDG) hissa qo‘shish imkonini beradi.

1. INTRODUCTION

In response to global calls for sustainable development, Jizzakh Polytechnic Institute is committed to integrating environmental, social, and economic sustainability across all areas of its operations. Procurement — the acquisition of goods and services — represents a major component of institutional impact, influencing not only financial outcomes but also the university's ecological footprint through construction, laboratory equipment, office supplies, food services, and more.

Studies show that 60–80% of total greenhouse gas emissions in higher education institutions are linked to indirect sources, primarily procurement activities. Therefore, each purchasing decision must be evaluated through a sustainability lens.

The purpose of this policy is to embed sustainability principles into all procurement processes at Jizzakh Polytechnic Institute, ensuring that goods and services are selected based not only on cost and quality, but also on their environmental, social, and economic impact.

This policy is an integral part of the institute’s “Sustainability and Climate Action Strategic Plan (2025–2030)” and will strengthen our participation in international sustainability rankings such as UI GreenMetric, THE Impact, and QS Sustainability, while also contributing to the UN Sustainable Development Goals (SDGs).

2. SIYOSATNING QO‘LLANISH SOHASI

Ushbu siyosat Jizzax politexnika institutining barcha bo‘limlari, fakultetlari, laboratoriyalari, xizmat ko‘rsatish markazlari, va xaridlarni amalga oshiruvchi har qanday tarkibiy tuzilmasiga tatbiq etiladi.

Barqaror xarid siyosati quyidagi toifa xaridlarni qamrab oladi:

- Ofis anjomlari va sarf materiallari (qog‘oz, qalam, printerlar va boshqalar)
- Elektronika va axborot texnologiyalari (kompyuterlar, monitorlar, printerlar)
- Qurilish, remont va obodonlashtirish materiallari
- Mebel va sinf xonasi jihozlari
- Laboratoriya asbob-uskunalari

- Energiya manbalari va yoqilg‘i mahsulotlari
- Kommunal xizmatlar (tozalash, transport, tashqi xizmatlar)
- Oziq-ovqat mahsulotlari va umumiy ovqatlanish uchun jihozlar
- Har qanday shartnoma asosidagi xizmatlar (masalan, xizmat ko‘rsatish, konsalting, yetkazib berish)

Ushbu siyosat yangi xaridlar bilan birga mavjud shartnomalarni uzaytirish, xizmat ko‘rsatishni yangilash va yangilanish rejalari uchun ham qo‘llaniladi. Shuningdek, u institut tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar, grantlar va tashqi hamkorlik asosida olib borilayotgan xaridlarni ham qamrab oladi.

2. SCOPE OF THE POLICY

This policy applies to all departments, faculties, laboratories, service centers, and any other structural units of Jizzakh Polytechnic Institute that are involved in purchasing or procurement activities.

The Sustainable Procurement Policy covers the following categories of purchases:

- Office supplies and consumables (e.g., paper, pens, printers)
- Electronics and IT equipment (e.g., computers, monitors, printers)
- Construction, renovation, and landscaping materials
- Furniture and classroom equipment
- Laboratory instruments and research devices
- Energy sources and fuel-related products
- Utility and support services (e.g., cleaning, transportation, outsourcing)
- Food products and catering equipment
- All contract-based services (e.g., consultancy, delivery, maintenance)

This policy applies not only to new procurements but also to contract renewals, service upgrades, and planned replacements. It also extends to externally funded projects, grant-supported purchases, and procurements conducted through institutional partnerships.

3. ASOSIY TAMOYILLAR

Jizzax politexnika instituti barqaror xarid siyosatini quyidagi asosiy tamoyillar asosida amalga oshiradi:

3.1. “Avoid – Shift – Improve” yondashuvi

Xarid jarayonida quyidagi ustuvorlik ketma-ketligi qo‘llaniladi:

- Avoid (oldini olish) – ortiqcha, kerakmas yoki funksional jihatdan yaroqsiz xaridlarni kamaytirish
- Shift (almashtirish) – zararli yoki ekologik xavfli mahsulotlarni barqaror alternativalar bilan almashtirish
- Improve (yaxshilash) – mavjud mahsulot va xizmatlarning ekologik, energiya va ijtimoiy samaradorligini oshirish

3.2. Hayotiy sikl xarajatini hisobga olish (Life-cycle costing)

Tanlovlar faqat dastlabki narx asosida emas, balki mahsulot yoki xizmatning butun hayot aylanishi bo‘yicha baholanadi, ya’ni:

- Ishlab chiqarish va yetkazib berishdagi energiya sarfi

- Foydalanish davridagi resurs sarfi va texnik xizmat talabi
- Foydalanish muddati va chiqindi holatidagi utilizatsiya xarajatlari

3.3. Ekologik ta’sirni minimallashtirish

- Kam ifloslantiruvchi, qayta ishlangan, qayta ishlanadigan mahsulotlarni afzal ko‘rish
- Energiya samaradorligi sertifikatlariga ega (masalan, Energy Star, EPEAT, ISO 14001) mahsulotlarni tanlash
- Suv, gaz, elektr resurslarini kam sarf qiluvchi texnologiyalarga e’tibor

3.4. Ijtimoiy va axloqiy javobgarlik

- Halollik, mehnat huquqlari va inson huquqlarini hurmat qiluvchi yetkazib beruvchilar bilan ishlash
- Mahalliy ishlab chiqaruvchilar, xotin-qizlar rahbarligidagi yoki ijtimoiy korxonalarni qo‘llab-quvvatlash
- Etik yetkazib berish zanjirini (supply chain) baholash

3.5. Barqaror innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash

- Innovatsion, texnologik va ekologik jihatdan ilg‘or mahsulotlarga ustunlik berish
- Raqamli xaridlar, bulutli xizmatlar va “as-a-service” yechimlar imkoniyatlarini ko‘rib chiqish

3. KEY PRINCIPLES

Jizzakh Polytechnic Institute’s sustainable procurement efforts are guided by the following key principles:

3.1. The “Avoid – Shift – Improve” Approach

This hierarchy guides all procurement decisions:

- **Avoid** unnecessary or inefficient purchases whenever possible
- **Shift** from harmful or non-sustainable options to environmentally friendly alternatives
- **Improve** the sustainability performance of existing products and services

3.2. Life-cycle Costing (LCC)

All procurement decisions consider the total cost of ownership, including:

- Energy used during production and delivery
- Operating and maintenance costs
- Lifespan and end-of-life disposal or recycling costs

3.3. Minimizing Environmental Impact

- Prioritize recycled, recyclable, or low-impact materials
- Prefer products with energy/environmental certifications (e.g., Energy Star, EPEAT, ISO 14001)
- Favor technologies that consume less water, gas, or electricity

3.4. Social and Ethical Responsibility

- Work with suppliers that demonstrate ethical labor practices and respect for human rights
- Promote local producers, women-led businesses, and social enterprises
- Evaluate supply chains for ethical and fair-trade standards

3.5. Supporting Sustainable Innovation

- Prioritize innovative, efficient, and eco-friendly products
- Explore options like digital procurement, cloud services, and “as-a-service” solutions

4. XARID BOSQICHLARIDA BARQARORLIK MEZONLARI

Jizzax politexnika institutining xarid siyosatida barqarorlik tamoyillarini real xarid jarayonlariga integratsiya qilish asosiy yondashuvlardan biridir. Ushbu mezonlar xaridning barcha

bosqichlarida, jumladan ehtiyojni aniqlash, mahsulot tavsifi, yetkazib beruvchini baholash va shartnoma tuzish jarayonlarida e’tiborga olinadi.

Avvalo, xaridga ehtiyoj aniqlanayotgan bosqichda, har bir strukturaviy bo‘lim, mavjud resurslardan foydalanish imkoniyatini baholashi va ortiqcha yoki funksional jihatdan samarasiz xaridlarni oldini olishga intilishi kerak. Xarid so‘rovi berilayotganida, har doim “yashil alternativ mavjudmi?” degan savolga asoslangan tahlil o‘tkazilishi zarur.

Mahsulot yoki xizmatni tanlashda barqarorlik bilan bog‘liq mezonlar xarid talabnomasiga ilova qilinadi. Bu mezonlar mahsulot turiga qarab ekologik sertifikatlar (masalan, Energy Star, FSC, EPEAT), ishlab chiqarish materiali, energiya iste’moli yoki qayta ishlanish imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Har bir xaridni amalga oshiruvchi bo‘lim ushbu mezonlarga amal qilishi talab etiladi.

Yetkazib beruvchilarni baholashda esa, faqat narx va sifat emas, balki ularning ekologik va ijtimoiy javobgarligi ham ko‘rib chiqiladi. Yetkazib beruvchilardan quyidagilarni taqdim etish so‘raladi: atrof-muhit siyosati, tegishli sertifikatlar (ISO 14001, EPEAT), chiqindilarni boshqarish tizimi, mehnat va inson huquqlarini hurmat qiluvchi siyosatlar. Bu mezonlar asosida xarid komissiyasi ball berish tizimidan foydalangan holda tanlovni amalga oshiradi.

Katta miqdordagi xaridlar (masalan, 10 million so‘mdan yuqori) bo‘yicha har doim kamida bitta “yashil alternativ” baholanishi talab qilinadi. Shartnoma tuzishda esa ekologik majburiyatlar, xizmat muddati davomida monitoring qilish shartlari va barqarorlik bilan bog‘liq qo‘shimcha bandlar kiritiladi.

Shunday qilib, barqarorlik institutning xarid siyosatida har bir qarorning ajralmas qismiga aylantiriladi.

4. SUSTAINABILITY CRITERIA IN THE PROCUREMENT PROCESS

At Jizzakh Polytechnic Institute, the integration of sustainability principles into the procurement process is a core approach to ensuring environmentally and socially responsible decision-making. These criteria apply across all procurement stages — from needs identification and product specification to supplier evaluation and contract execution.

At the initial stage, when a purchase need is identified, departments are encouraged to assess whether the need can be met through existing resources or by avoiding unnecessary acquisitions. Every procurement request should be supported by a documented evaluation that considers whether a more sustainable alternative exists.

When specifying goods or services, departments must include sustainability-related criteria in their request. These may involve specific certifications (e.g., Energy Star, FSC, EPEAT), material types, energy consumption levels, or recyclability. Each product category may require tailored sustainability parameters, and compliance with these standards is expected across all units.

Supplier selection must go beyond pricing and quality considerations to include environmental and social responsibility. Suppliers may be asked to provide documentation on their environmental management systems (e.g., ISO 14001), product environmental ratings, labor policies, and supply chain ethics. Based on these inputs, the procurement committee uses a weighted scoring matrix that assigns value to sustainability impact.

For high-value procurements (e.g., exceeding 10 million UZS), it is mandatory to assess at least one “green” alternative. Contracts should contain relevant sustainability clauses, including environmental commitments, service-level monitoring, and options for greener upgrades over the life of the agreement.

Through this comprehensive approach, sustainability becomes embedded in every procurement decision, supporting the institute’s commitment to responsible and forward-thinking resource management.

5. JAVOBGARLIK VA BOSHQARUV

Jizzax politexnika institutining Barqaror xarid siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun aniq belgilangan boshqaruv tuzilmasi va mas’uliyatli mexanizmlar zarur. Xarid jarayonidagi barqarorlik mezonlariga rioya qilish nafaqat xarid bo‘yicha mas’ul xodimlar, balki institut rahbariyati, moliya bo‘limi, texnik xizmat ko‘rsatish tuzilmalari va yetkazib beruvchilarning hamkorligini talab qiladi.

Siyosat uchun strategik rahbarlikni institut rektori va moliyaviy masalalar bo‘yicha prorektor amalga oshiradi. Ular siyosatni tasdiqlaydi, moliyaviy mezonlarni belgilaydi va yillik xarid portfeli ustidan nazoratni ta’minlaydi. Siyosatning operatsion darajadagi ijrosini esa **Barqaror xaridlar bo‘yicha ishchi guruh (BXIG)** muvofiqlashtiradi.

BXIG quyidagilardan tashkil topadi:

- Moliyaviy xizmat bo‘limi vakili (siyosiy nazorat va xaridlar reestri)
- Ta’minot/xarid bo‘limi mutaxassisi
- Ekologiya bo‘yicha maslahatchi yoki texnik xodim
- Xalqaro reytinglar va barqarorlik bo‘yicha vakil
- Fakultet vakillari (yiliga kamida 1 marta aylanish asosida)
- Talabalar “Green Club” vakili (maslahat darajasida)

BXIG har chorakda yig‘ilib, yirik xaridlar bo‘yicha tavsiyalar beradi, “yashil xarid” ulushini tahlil qiladi va yillik barqarorlik hisobotiga kiritiladigan xarid statistikalarini tuzadi.

Har bir fakultet yoki bo‘limda tayinlangan **barqaror xarid koordinatori** ushbu siyosat talablariga rioya etilishini ta’minlaydi, hujjatlarni to‘plashda va yetkazib beruvchilar bilan ishlashda muvofiqlashtiruvchi rol o‘ynaydi.

5. GOVERNANCE AND RESPONSIBILITIES

Effective implementation of the Sustainable Procurement Policy at Jizzakh Polytechnic Institute requires clearly defined governance structures and accountability mechanisms. Responsibility for sustainable purchasing lies not only with procurement staff but also with institutional leadership, finance units, technical services, and external suppliers.

Strategic oversight is provided by the Rector and the Vice-Rector for Financial Affairs, who formally approve the policy, establish budgetary priorities, and oversee the annual procurement portfolio. Day-to-day coordination and implementation are carried out by the **Sustainable Procurement Working Group (SPWG)**.

The SPWG is composed of the following members:

- A representative from the Finance Department (for policy control and procurement registry)
- A procurement/supply specialist
- An environmental advisor or sustainability officer
- A representative from the International Rankings or GreenMetric coordination team
- Rotating faculty representatives (at least one per year)
- A student member from the Green Club (advisory role)

The SPWG meets quarterly to review large procurement decisions, monitor the share of sustainable purchases, and prepare procurement-related inputs for the institute's annual sustainability report.

Each faculty or department assigns a **Sustainable Procurement Coordinator**, responsible for ensuring compliance with this policy, gathering relevant documentation, and liaising with suppliers on sustainability criteria.

6. MONITORING, HISOBOT VA RIVOJLANISH

Barqaror xarid siyosatining samarali ishlashi uchun muntazam monitoring, shaffof hisobot yuritish va doimiy rivojlanish tamoyillariga qat'iy rioya qilinadi. Bu institut darajasida qaror qabul qilishni optimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va xalqaro reyting talablariga mos bo'lish imkonini beradi.

Monitoring faoliyatini **Barqaror xaridlar bo'yicha ishchi guruh (BXIG)** muvofiqlashtiradi. Guruh har chorakda xaridlar reestrini ko'rib chiqadi, "yashil xarid" ulushini aniqlaydi va tavsiyalar ishlab chiqadi. KPI (asosiy ko'rsatkichlar) asosida olingan natijalar yillik ravishda rasmiy hisobotga kiritiladi.

6.1. Monitoring ko'rsatkichlari (KPIlar)

Quyidagi ko'rsatkichlar kuzatiladi:

- Umumiy xaridlar hajmiga nisbatan barqaror xaridlar ulushi (%)
- Qayta ishlangan yoki ekologik sertifikatli mahsulotlar soni
- Sertifikatli yetkazib beruvchilar ulushi
- Energiyani tejovchi uskunalar xarid qilinish darajasi
- Xarid komissiyalarida "yashil alternativ" ko'rib chiqilgan holatlar soni

6.2. Hisobotlar va sharhlar

- Har yili "Yashil xaridlar bo'yicha yillik hisobot" tayyorlanadi va **barqarorlik strategiyasi**ning yillik ko'rsatkichlariga kiritiladi.
- Hisobot institut veb-saytida va GreenMetric / THE Impact reytinglariga yuboriladigan materiallar ichida ham nashr qilinadi.
- Hisobot asosida kamchiliklar aniqlanadi va keyingi yilga takliflar beriladi.

6.3. Siyosatni yangilash va rivojlantirish

- Siyosat har ikki yilda kamida bir marta **qayta ko'rib chiqiladi**, yangilangan talablar, normativ hujjatlar va texnologik o'zgarishlarga moslashtiriladi.

- Yetkazib beruvchilar, xodimlar va talabalar fikrlari asosida **feedback tizimi** yo‘lga qo‘yiladi.
- “Green Procurement Week” kabi ichki targ‘ibot kampaniyalari orqali siyosat doimiy ravishda tushuntiriladi va kengaytiriladi.

6. MONITORING, REPORTING AND IMPROVEMENT

To ensure the effective implementation of this policy, the institute adopts a robust system of monitoring, transparent reporting, and continuous improvement. These processes enhance decision-making, encourage responsible resource use, and ensure compliance with international sustainability frameworks.

Monitoring is coordinated by the **Sustainable Procurement Working Group (SPWG)**. The group conducts quarterly reviews of procurement registers, evaluates the share of sustainable purchases, and proposes improvements. Key performance indicators (KPIs) are tracked and included in the institute’s annual sustainability report.

6.1. Key Monitoring Indicators (KPIs)

The following indicators are tracked:

- Percentage of sustainable purchases relative to total procurement
- Number of products purchased with green certifications or recycled content
- Share of suppliers with recognized sustainability credentials
- Proportion of energy-efficient equipment among technical purchases
- Number of procurement decisions where a green alternative was considered

6.2. Reporting and Transparency

- An **Annual Green Procurement Report** is produced and integrated into the institute’s broader sustainability performance review.
- The report is published on the university’s website and submitted as part of GreenMetric, THE Impact, and QS reporting packages.
- The report identifies gaps and formulates recommendations for the upcoming year.

6.3. Policy Review and Continuous Improvement

- The policy is **formally reviewed at least every two years** to reflect updates in national regulations, international best practices, and technological developments.
- A **feedback mechanism** will be established to incorporate suggestions from suppliers, staff, and students.
- Awareness will be promoted through events such as **Green Procurement Week**, internal campaigns, and training sessions.

7. QO‘SHIMCHALAR VA ILOVALAR

Barqaror xarid siyosatining amaliy qo‘llanmasi sifatida quyidagi texnik hujjatlar, mezonlar va ko‘rsatkichlar institut bo‘limlari uchun qo‘shimcha manba sifatida taklif etiladi. Ushbu ilovalar siyosat mezonlarini turli mahsulot va xizmatlar turlari uchun qanday qo‘llash mumkinligini tushuntiradi.

7.1. Ekologik va ijtimoiy sertifikatlar ro‘yxati

Xarid qilinadigan mahsulotlar uchun quyidagi xalqaro tan olingan ekologik sertifikatlar (yoki ularning mahalliy muqobillari) talab qilinadi yoki tavsiya etiladi. Yetkazib beruvchilardan ushbu sertifikatlar nusxasi yoki mahsulot yorlig‘i so‘raladi:

- **Energy Star** – energiya tejamkor texnik jihozlar uchun
- **FSC (Forest Stewardship Council)** – qog‘oz va yog‘och mahsulotlari
- **EPEAT / TCO Certified** – kompyuter va elektronika uskunalari
- **ISO 14001** – atrof-muhit menejment tizimi bo‘yicha korxonalar
- **EcoLabel (EU or national)** – umumiy ekologik mahsulot bahosi
- **Fairtrade / SA8000** – ijtimoiy mas’uliyatli ta’minot zanjirlari

7.2. Mahsulot toifalari bo‘yicha barqarorlik mezonlari (namunaviy jadval)

Quyidagi jadvalda ba’zi mahsulot guruhlari uchun barqaror xarid mezonlari keltirilgan:

Mahsulot toifasi	Tavsiya etiladigan mezonlar	Sertifikatlar
Qog‘oz va chop mahsulotlari	100% qayta ishlangan yoki FSC sertifikatli bo‘lishi kerak	FSC, EcoLabel
Kompyuter va printerlar	Energiyani kam sarflovchi, uzoq xizmat muddati	Energy Star, EPEAT
Elektron qurilmalar	Qayta ishlanadigan qismlar, ekologik yig‘ish	TCO, ISO 14001
Mebel	Qayta ishlangan yog‘och, toksik bo‘lmagan materiallar	FSC, EcoLabel
Tozalash vositalari	Biologik parchalanadigan, zararli moddasiz	EcoLabel, Green Seal
Oziq-ovqat	Mahalliy yetishtirilgan, mavsumiy, organik mahsulotlar	Fairtrade, HACCP, USDA Organic

7.3. Foydalaniladigan hujjatlar va shakllar

Siyosatni amaliyotda qo‘llash uchun quyidagi hujjatlar har bir xarid jarayoniga mos ravishda shakllantiriladi:

- Barqaror xarid mezonlari ilovasi (MS Word / PDF shaklida)
- Yetkazib beruvchini baholash formasi (ko‘p variantli ball tizimi bilan)
- Xaridni tasdiqlashda “Yashil alternativ ko‘rib chiqildi” belgisi bo‘lishi kerak bo‘lgan belgi sahifasi
- Yillik “Barqaror xaridlar hisobot shakli” (Excel shaklida)

7. APPENDICES

As a practical extension of this policy, the following technical appendices provide concrete guidance for departments implementing sustainable procurement. These documents illustrate how sustainability criteria apply across product categories and procurement processes.

7.1. Recommended Environmental and Social Certifications

Procured items should meet internationally recognized sustainability standards whenever possible. Suppliers may be required to provide documentation or product labeling that includes:

- **Energy Star** – for energy-efficient electronics
- **FSC (Forest Stewardship Council)** – for wood and paper products
- **EPEAT / TCO Certified** – for computers and monitors
- **ISO 14001** – for supplier environmental management systems
- **EcoLabel** – for general environmental product rating
- **Fairtrade / SA8000** – for ethically sourced goods and labor standards

7.2. Sustainability Criteria by Product Category (sample table)

Product Category	Recommended Criteria	Certifications
Paper and print	100% recycled or FSC-certified	FSC, EcoLabel
Computers & printers	Low energy consumption, long service life	Energy Star, EPEAT
Electronics	Recyclable parts, green assembly	TCO, ISO 14001
Furniture	Recycled wood, non-toxic materials	FSC, EcoLabel
Cleaning supplies	Biodegradable, free of harmful substances	EcoLabel, Green Seal
Food products	Locally sourced, seasonal, organic where possible	Fairtrade, USDA Organic

7.3. Standard Forms and Templates

To ensure consistency, the following documents will be used throughout procurement operations:

- Sustainable procurement checklist (Word or PDF)
- Supplier evaluation form (multi-criteria scoring)
- “Green alternative considered” tick-box in all major procurement approvals
- Annual “Sustainable Procurement Report Template” (Excel)

YAKUNIY SO‘Z

Jizzax politexnika instituti barqaror rivojlanish tamoyillarini nafaqat ilmiy faoliyatda, balki kundalik boshqaruv va xarid amaliyotida ham ustuvor yo‘nalish sifatida qabul qiladi. Ushbu siyosat nafaqat ekologik va iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ta’lim va ilmiy muhitda barqarorlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Biz barcha bo‘limlar va xodimlarni ushbu siyosatni faol qo‘llashga, o‘z faoliyatida mas’uliyatli va uzoq muddatli fikrlashni ustuvor qo‘yishga chorlaymiz. Har bir barqaror xarid — bu nafaqat hozirgi ehtiyojlarga yechim, balki kelajak avlodlar uchun sog‘lom, toza va iqlimga mos muhit yaratish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir.

KELAJAKNI BUGUNDAN BARPO QILAMIZ — ONGLI TANLOV BILAN!

CLOSING STATEMENT

At Jizzakh Polytechnic Institute, sustainability is embraced not only as a research and academic priority, but as a guiding principle in everyday management and procurement practices. This policy aims to improve environmental and economic performance while cultivating a culture of responsibility and sustainability within the educational and scientific community.

We encourage all departments and staff members to actively engage with this policy and adopt long-term, thoughtful decision-making in all purchasing activities. Every sustainable purchase is not only a response to current needs, but a meaningful step toward building a cleaner, healthier, and climate-resilient future for the next generations.

LET US SHAPE THE FUTURE — THROUGH CONSCIOUS CHOICES MADE TODAY.